



World Conference on Agricultural and Earth Sciences

Hosted Online from Istanbul, Turkey

Date: 20th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

MAHALLIY SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIK DARAJASINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Tojibayev Farrux Baxtiyorovich

Mustaqil izlanuvchisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mahalliy soliqlarning **yig'iluvchanlik darajasi** soliq majburiyatlarining qay darajada aniq va o'z vaqtida to'langanini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkichdir. Umumiy tarzda quyidagi formula bo'icha hisoblanadi:

$$Y = \frac{T_f}{T_a} \times 100\%$$

bu yerda: Y- mahalliy soliqlarning % da hisoblangan yig'iluvchanlik darajasi; T_f -haqiqiy to'langan mahalliy soliqlar qiymati; T_a - hisoblangan yoki prognoz qilingan mahalliy soliqlar nominal qiymati.

Agar, $Y = 100\%$ bo'lsa, unda mahalliy soliqlar to'liq yig'ilgan bo'lib, hudud soliq salohiyatidan to'liq foydalanilganlikni anglatadi. Agar, $Y < 100\%$ bo'lsa unda yig'iluvchanlik past bo'lib, soliqlar bo'yicha qarzдорlik mavjud bo'ladi. Agar, $Y > 100\%$ bo'lsa, hudud soliq salohiyatidan to'liq foydalanilganlikni, soliq bazasining prognoz ko'rsatkilariga nisbatan kengayganligi yoki oldingi yillarda soliq qarzlari ham to'liq undirilganligini anglatishi mumkin.

Shuningdek, ko'p omilli, hududlar soliq salohiyatining ichki mikrokomponentlarining ulushi hamda soliq bazasining hududiy xususiyatlarini hamda vaqt omillari kabilarni inobatga olgan holda bir qator yuqoridagi formulaning modifikatsiyalarini tizimlashtirish mumkin:

1. **Vaqt omilini hisobga olgan holda:**

$$Y_t = \frac{T_{f,t}}{T_{a,t}} \times 100\%$$



World Conference on Agricultural and Earth Sciences

Hosted Online from Istanbul, Turkey

Date: 20th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Bunda choraklik yoki tanlangan davriy omillar inobatga olinadi. Ushbu formulaning ahaiyatli jihati shundan iboratki, soliqlar tushumlarining davriy xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu budget daromad va xarajatlarini kassaviy boshqarishda ahamiyatidir.

2. Soliqlar turlari bo‘yicha yig‘iluvchanlik:

$$Y = \sum_{i=1}^n \omega_i \times \frac{T_{f,i}}{T_{a,i}}$$

bu yerda ω_i — har bir soliq turining umumiy mahalliy daromaddagi ulushi.

Xususan ushbu formulaga muvofiq har bir hududda YaHMning tarmoq tarkibi va soliq bazasining taqsimlanishi assimetrik tavsifga egadir. Shuning uchun ham real soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasini hisoblashda ushbu formula muhim hisoblanadi.

3. Soliqlar yig‘iluvchanligini bazaviy garmonik modellar orqali baholash. Bizga ma‘lumki, soliqlarning ma‘lum davrdagi yig‘iluvchanligi mavsumiy tebranish xususiyatiga ega hisoblanadi. Masalan, yilning birinchi kvartaliga nisbatan 4 kvartalidagi yig‘iluvchanlik yuqori darajani tashkil qiladi. Bu bir necha yillik uzgarishlar trendida soliq tushumlarining garmonik tebranishlarini ifodalaydi. Mavsumiy yoki davriy tebranish bilan ifodalangan soliq yig‘iluvchanlik darajasi quyidagicha hisoblanadi:

$$Y_t = \bar{Y} + A \cdot \sin(\omega t + \varphi)$$

bu yerda:

Y_t – t-momentda soliq yig‘iluvchanligi (%);

\bar{Y} – o‘rtacha yig‘iluvchanlik darajasi (trendsiz holat);

A – tebranish amplitudasi (soliq tushumidagi maksimal og‘ish);

ω – davriylik chastotasi: $\omega = \frac{2\pi}{T}$ (T – davr uzunligi, masalan 12 oy);

φ – fazaviy burilish (tebranish boshlanish nuqtasi).



World Conference on Agricultural and Earth Sciences

Hosted Online from Istanbul, Turkey

Date: 20th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Demak, umumiy xulosa qiladigan bo'lsak ushbu model orqali, soliq yig'iluvchanligidagi mavsumiy o'zgarishlar (masalan, 1-chorakda past, 4-chorakda yuqori bo'lishi)ni aniqlash mumkin. Shuningdek, ushbu garmonik tebranish ko'p davriys qatorlarni takrorlagan holda ko'p takrorlanuvchi garmonik modeldan foydalanishni taqozo qiladi. Bunda Fur'e qatorlari formulasining modifikatsiyasidan foydalanish mumkin:

Demak, agar soliq yig'iluvchanlik bir nechta turli sikllarga (masalan, yillik, choraklik va aylanma davrlar) bo'ysunadi deb hisoblasak, u holda:

$$Y_t = a_0 + \sum_{k=1}^n [a_k \cos(k\omega t) + b_k \sin(k\omega t)]$$

bu yerda:

a_0 — umumiy o'rta qiymat (trend qismi);

a_k, b_k — garmonik koeffitsientlar;

n — garmoniklar soni (mavsumiylik darajasiga qarab tanlanadi);

$$\omega = \frac{2\pi}{T}$$

Ushbu model soliq yig'iluvchanligidagi kompleks tebranishlarni — yil ichidagi, yarim yillik yoki kvartallik o'zgarishlarni bir vaqtning o'zida qamrab oladi.

2020-2024-yillar davomida ko'pchilik hududlarda soliq yig'iluvchanlik darajasi 90–105 foiz oralig'ida shakllangan bo'lib, bu respublika miqyosida nisbatan barqaror fiskal intizom mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim hududlardagi keskin og'ishlar hududiy iqtisodiy salohiyat, soliq ma'murchiligi sifati hamda tashqi iqtisodiy omillar ta'sirini chuqurroq o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida respublikamizda soliq yig'iluvchanligi ta'minlashda hududlar ishtirokini tadqiq qildik. Hududlardagi soliq yig'iluvchanlik darajasini 1-jadvalda keltirilgan.



World Conference on Agricultural and Earth Sciences

Hosted Online from Istanbul, Turkey

Date: 20th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

1-jadval O‘zbekistonda viloyatlar bo‘yicha soliqlar yig‘iluvchanlik darajasi¹, foiz

Viloyatlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Qoraqalpog‘iston	95,5	90,6	89,0	97,5	96,3
Andijon viloyati	95,2	87,5	91,5	95,1	90,8
Buxoro viloyati	93,2	92,5	98,1	95,8	92,7
Jizzax viloyati	88,8	85,8	95,6	95,6	89,8
Qashqadaryo viloyati	89,9	92,9	89,4	94,3	98,0
Navoiy viloyati	89,6	99,8	96,2	90,0	91,8
Namangan viloyati	93,0	92,9	46,1	98,2	91,7
Samarqand viloyati	96,7	94,3	94,3	94,5	92,4
Surxondaryo viloyati	94,6	88,6	92,4	97,2	97,4
Sirdaryo viloyati	90,8	96,2	96,4	95,2	98,8
Toshkent shahri	89,2	93,0	91,2	85,4	97,4
Toshkent viloyati	93,5	96,6	91,7	93,3	93,1
Farg‘ona viloyati	91,7	92,4	96,3	96,0	98,1
Xorazm viloyati	94,8	96,6	88,9	95,6	94,8

1-jadvalga ko‘ra, 2020-2024-yillar davomida O‘zbekistonda hududlar kesimida soliqlar yig‘iluvchanlik darajasi dinamikasi hududlar o‘rtasida ma‘lum tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, ko‘pchilik hududlarda ko‘rsatkich 90–98 foiz oralig‘ida shakllanib, nisbatan barqaror hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda keskin tebranishlar kuzatilgani hududiy iqtisodiy sharoitlar, soliq ma‘murchiligi sifati hamda tashqi omillarning ta‘sirini anglatadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Samarqand, Toshkent viloyati va Xorazm viloyatlarida ko‘rsatkichlar asosan o‘rtacha barqaror dinamika bilan tavsiflanadi, ya‘ni yillar kesimida keskin o‘zgarishlar kuzatilmagan, pasayish va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tadqiqotchi hisob-kitoblari.



World Conference on Agricultural and Earth Sciences

Hosted Online from Istanbul, Turkey

Date: 20th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

tiklanish jarayonlari muvozanatli kechgan. Farg‘ona, Sirdaryo hamda Surxondaryo viloyatlarida esa 2022-2024-yillarda ijobiy o‘shish tendensiyasi shakllanib, soliq yig‘iluvchanlik darajasi yuqorilagan. Bu hududlarda soliq bazasining kengayishi va ma‘murchilik mexanizmlarining takomillashgani ehtimoli yuqori.

Xulosa o‘rnida, tahlil qilinayotgan 2020 yilda yuqori soliq yig‘iluvchanlik darajasiga (90 foizdan yuqori) ega hududlar o‘ntani tashkil etgan bo‘lsa 2024-yilga kelib 13 tani tashkil etgan.

Respublikada barcha soliq turlari bo‘yicha soliq yuki pasayishi kuzatilgan, biroq bilvosita soliqlar bo‘yicha o‘shish kuzatilmog‘da, rivojlanayotgan davlatlar uchun xos xususiyat hisoblanadi. Mamlakatimizda ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar pirovardida bilvosita soliqlar bo‘yicha soliq yuki ortishi muqarrardir. Lekin, bu aholining iste‘mol darajasining pasayishini keltirib chiqarishi mumkinligini ham e‘tibordan qochirmaslik maqsadga muvofiqdir.

Budjetga daromadlar tushumining oshishi/kamayishiga umuman quyidagi omillar ta‘sir etadi:

- respublika iqtisodiyotining o‘shishi;
- so‘mning erkin ayirboshlash kursini joriy qilish;
- qimmatbaho va rangli metallarga jahon narxlarining nisbatan yuqoriligi;
- pandemiya vaqtida karantin choralarining joriy etilishi va yengillashtirilishi;
- soliq islohoti;
- soliq ma‘muriyatchiligining yangi instrumentlarini joriy etish belgilangan.

Mol-mulk solig‘i. O‘shish dinamikasi - jami 104,1%, barcha soliqlar bo‘yicha 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqning umumiy tushumida soliqning salmog‘i kamayib, uning ulushi esa ahamiyatsiz bo‘lib bormog‘da.



World Conference on Agricultural and Earth Sciences

Hosted Online from Istanbul, Turkey

Date: 20th March, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Shuningdek, soliqqa tortiladigan bazaga jiddiy taʼsir koʻrsatuvchi bir qator omillarni ham hisobga olish kerak. Bular: iqtisodiyotdagi toʻlovsizliklar, ish haqi boʻyicha qarzdorlik va boshqa omillar hisoblanadi. Asosiy soliq toʻlovchilarning soliq bazasining oʻzgarishiga, ularning moliyaviy ahvoriga, hisob-kitoblar shakllariga taʼsiri albatta tahlil etilishi lozim.